

## MEDIATORLIK KASBINI RIVOJLANTIRISHDA MEDIATORLIK ETIKASINI JORIV QILISH. XALQARO MEDIATORLIK ETIKASI TAHLILI.

Raxmonaliyev Mirjalol Avazbek o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Magistratura va sirtqi ta’lim fakultetining

Mediatsiya va nizolarni muqobil hal etish yo‘nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14078938>

*Annotatsiya.* Maqolamizni yozishda tahliliy hamda qiyosiy metodlardan foydalangan holda mediatorlik etika-estetikasini keng tahlil qilishga harakat qildik. Mediatorlik etika-estetikasi mediatorning kasbiy faoliyatida qanchalik muhimligi, uning qaysi usullar bilan qo‘llash va uning nizolarni muqobil hal etishda tutgan o‘rni haqidagi atroflicha ma’lumotlarni berib o‘tamiz. Yuritimidza mediatorlik etika-estetikasi hali kuchli rivojlanmagan bo‘lsa ham bir qator rivojlangan davlatlarda mediatorlik etika-estetikasi ancha bizdan oldinlab ildamlab ketgan hisoblanadi. Mediatorlik o‘zlarining etika-estetikasiga amal qilgan holda faoliyatlarini yuritib bormoqdalar. Boshqa kasblarning o‘ziga yarasha etika-estetikasi mavjud. Mediatorlik etika-estetikasi esa ulardan bir qancha farq qiladi. Ko‘pchilik hollarda etika-estetika deganda kiyinish va ozodalik tushuniladi. Albatta bular ham etika-estetika qoidalari hisoblanadi ammo mediatorlik etika-estetikasi boshqa proressiyalarning etika-estetikasidan bir munkha farq qiladi. Mediatorlik etika-estetikasi faqatgina mediatorning o‘zini tutush qoidalariqina bo‘libgina qolmay, nizolarni hal etishda mediatorga kerak bo‘lgan bir qancha ko‘nikmalarni ham o‘z ichiga oladi. Aynan Singapur, Indoneziya, Malaziya, Rossiya hamda Amerika Qo‘shma shtatlarida mediatorlarning etika-estetikasiga alohida e’tibor berilgan. Ularning tajribalari o‘rgangan holda mediatorlik etika-estetikasini milliy lashtirishimiz bu sohaning rivojlanishiga katta hissa qo‘sishi mumkin.

*Kalit so‘zlar:* mediatsiya asossatsiyasi, mediativ kelishuv, etika-estetika, integratsiya.

### INTRODUCTION OF MEDIATION ETHICS IN THE DEVELOPMENT OF MEDIATION PROFESSION. ANALYSIS OF ETHICS OF INTERNATIONAL MEDIATION.

*Abstract.* In writing our article, we tried to extensively analyze the ethics and aesthetics of mediation using analytical and comparative methods. We will give detailed information about the importance of the ethics and aesthetics of mediation in the professional activity of a mediator, the methods of its application and its role in alternative conflict resolution. Although the ethics and aesthetics of mediation have not yet developed strongly in our law, the ethics and aesthetics of mediation in a number of developed countries are considered to have been developed much earlier than ours. Mediators conduct their activities in accordance with their ethics and aesthetics. Other professions have their own ethics and aesthetics. The ethics and aesthetics of mediation are somewhat different from them. In most cases, ethics-aesthetics means dressing and neatness. Of course, there are also ethics-aesthetics rules, but the ethics-aesthetics of mediation is somewhat different from the ethics-aesthetics of other professions. The ethics and aesthetics of mediation are not only the rules of behavior of a mediator, but also include a number of skills that a mediator needs in resolving disputes. Especially in Singapore, Indonesia, Malaysia, Russia and the United States of America, special attention is paid to the ethics and aesthetics of mediators.

*Our nationalization of ethics-aesthetics of mediation by studying their experiences can make a great contribution to the development of this field.*

**Key words:** mediation association, mediation agreement, ethics-aesthetics, integration.

### **ВНЕДРЕНИЕ МЕДИАЦИОННОЙ ЭТИКИ В РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИИ МЕДИАТОРА. АНАЛИЗ ЭТИКИ МЕЖДУНАРОДНОГО ПОСРЕДНИЧЕСТВА.**

**Аннотация.** При написании нашей статьи мы постарались широко проанализировать этику и эстетику медиации, используя аналитические и сравнительные методы. Мы дадим подробную информацию о значении этики и эстетики медиации в профессиональной деятельности медиатора, методах ее применения и роли в альтернативном разрешении конфликтов. Хотя этика и эстетика медиации в нашем праве еще не получили сильного развития, считается, что в ряде развитых стран этика и эстетика медиации сложились гораздо раньше, чем у нас. Медиаторы ведут свою деятельность в соответствии со своей этикой и эстетикой. Другие профессии имеют свою этику и эстетику. Этика и эстетика медиации несколько отличаются от них. В большинстве случаев этика-эстетика подразумевает одевание и опрятность. Конечно, это тоже этико-эстетические правила, но этико-эстетика медиации несколько отличается от этико-эстетики других профессий. Этика и эстетика медиации – это не только правила поведения медиатора, но и включают в себя ряд навыков, необходимых медиатору при разрешении споров. Особенно в Сингапуре, Индонезии, Малайзии, России и Соединенных Штатах Америки особое внимание уделяется этике и эстетике медиаторов. Наша национализация этики-эстетики медиации путем изучения их опыта может внести большой вклад в развитие этой области.

**Ключевые слова:** медиативное объединение, медиативное соглашение, этика-эстетика, интеграция.

### **Kirish**

Yurtimizda mediatorlik kasbi yangi huquq instituti sifatida kirib kelmoqda. Boshqa professional kasblarda bo'lgni kabi mediatorlik kasbida ham o'ziga yarasha etika va estetikasiga ega hisoblanadi. Mediatorlik kasbida etika va estika shunchaki kerakli talablarga bo'lmay mediatorning ish faoliyatida unga mijozlar bilan ishlash hamda muammoni muqobil hal etishda ham juda zarur hisoblanadi. Bir qancha chet el davlatlarida mediatorning etika estetika kodekslari ham qabul qilingan bo'lib ushbu kodeksda belgilangan qonun qoidalar mediatorlar o'zlarini har xil vaziyatda qanday tutishlarini, yechimlarini qanday topishlari va eng asosiysi taraflar bilan mediativ kelihuvni qanday va qay tartibda olib borish qonun-qoidalarini belgilab beradi. Etika va estetika faqatgina mediatorning o'zini qanday tutishinigina beliblab qolmay balkim ularining soft hamda hard skillslarini shakillantirishda ko'maklashadi.

Yurtimizda 21 asrning uchinchi o'n yilliga mediatorlik kasbi borgan sari ommalashib bormoqda. Mediatorlarning soni ko'paygani bu yaxshi ammo ularning barchasi ham mediatorlik kasbiga etika hamda estetikasi qoidalariga amal qilmaydi yoiki bu qoidalar haqida umuman ma'lumotga ega emas. Mediatorlik etika-estetikasini joriy qilish hamda uni mediatorlar orasida amal qilish kerak bo'lgan qoidaga aylantirish mediatorlik kasbi umuman olib qaraganda mediatorlik sohasini ham rivojlanishi katta hissса qo'shishi mumkin.

Mediator bu shunchaki taraflarning masalasni hal qiluvchi shaxs sifatida emas aksincha sud ishlarini qisqartirish, sudga fuqarolar o'rtasida kelib chiqadigan har bir nizolar bilan murojaat qilishni qisqartiruvchi, nizolarni oz muddat hamda ortiqcha hujjatlarsiz (ya'ni mediativ kelishuvning o'zi bilan cheklanadi) hal qilish va fuqarolarni ishini ancha ossonlashtiruvchi soha sifatida tushunilishi lozim.

**Material va metodlar:** ushbu maqolani yozishda biz tahliliy hamda qiyosiy metodlardan foydalandik. Maqolamizda Singapru, Germaniya, Belgiya, AQSh hamda Daniya tajribasi va olimlarining fikrlari, maqolalar va ilmiy ishlarini o'rganish orqali yozdim.

### Tadqiqot natijalari

Mediatsiya turli mamlakatlarda keng tarqalgan muqobil nizolarni hal qilish (ADR) jarayoni bo'lib, unga yondashuv qonunchilik asoslari, madaniy munosabatlar va tarixiy omillarga qarab farq qilishi mumkin. Mediatsiya tarixan olib qarasak insoniyat yaralgandan so'ng u bilan birgalikda rivojlanib kelayotgan nizolarni hal muqobil hal etishning bir usuli hisoblanadi. Oddiygina qilib ikkita bolaning o'rtasidagi nizoni tarbiyachi tomonidan hal etilishini ham biz mediatsiyaga misol qilib keltirsak bo'ladi. Bundan esa shuni tushunishim mumkinki mediatsiya bu ikki tarafning bir netral ya'ni betaraf shaxsning ishtirokida hal etilishi. Keling endi quyidagi davlarning mediatsiyasi sohasini o'rganib chiqsak.

### Singapur

Singapur hozirda nafaqat Osiyoda balki xalqaro maydondagi yetakchi vositachilik markazlaridan biri sifatida e'tirof etilib kelinmoqda, ayniqsa, tijorat nizolari bu davlatning mediatsiya sohasida o'zgacha o'ringa ega. Singapur xalqaro vositachilik markazi (SIMC) 2014-yilda tashkil etilgan SIMC xalqaro nizolarni hal qilish xizmatlarini taqdim etadi. U betarafligi, professionalligi va samaradorligi tufayli mashhur xalqaro hamjamiyatda mashhurdir. Singapurning "Mediatsiya to'g'risida"gi qonuni 2017-yilda joriy etilgan hamda 2023 yilda o'zgartirish va qo'shimchalar kirgazilgan. Ushbu qonun mediatsiya to'g'risidagi bitimlarni qo'llashni ta'minlaydi va jarayonga ishonchni oshirib, huquqiy jihatlarga aniqlik kiritadi. Singapur hukumati ADR mexanizmlarini qattiq qo'llab-quvvatlaydi hamda ularni Singapur vositachilik markazi (SMC) kabi institutlar orqali huquqiy tizimga integratsiya qiladi.

Mediatsiya ham ichki, ham xalqaro ishlar uchun qo'llaniladi. Jamoatchilik vositachiligi markazi (CMC) ijtimoiy, mahalla va kichik nizolarni hal qilishga yordam beradi. Singapur sudlari ko'pincha fuqarolik ishlari bo'yicha mediatsiyani rag'batlantiradilar va mediatsiya kelishuvlari sud qarorlari orqali amalga oshirilishi mumkin.

### Germaniya

Germaniyada mediatsiya quyidagi nizolarni o'z ichida oladi: oilaviy, mehnat va tijorat nizolariga katta e'tibor qaratilib, o'z huquqiy tizimiga integratsiyalashgan vositachilik tuzilmasi mavjud. Germaniyada "Mediatsiya to'g'risida"gi qonun 2012 yilda qabul qilingan.

Germaniyaning "Mediatsiya to'g'risida"gi qonuni mediatsiyaning huquqiy asoslarini belgilaydi, ixtiyorliy, maxfiy va neytral vositachilik tartib-qoidalarini ilgari suradi. Germaniya sudlari ko'pincha, ayniqsa fuqarolik va oilaviy nizolarda mediatsiyani rag'batlantiradilar.

Sudylar sud muhokamasiga nisbatan tejamkor va tezroq muqobil vosita sifatida vositachilikni tavsiya etishlari mumkin.

Germaniyadagi kompaniyalar ko‘pincha ishbilarmonlik nizolarini hal qilish uchun vositachilikni afzal ko‘radilar, chunki u kamroq qarama-qarshilik va biznes munosabatlarini saqlab qolish uchun qulayroqdir. Germaniyada vositachi sifatida tan olinishi uchun jarayonning professionalligiga hissa qo‘shadigan ma’lum malakalar talab qilinadi.

### **Belgiya**

Belgiyada, mediatsiya ayniqsa, oilaviy huquq, mehnat nizolari va tijorat nizolari bo‘yicha kuchli vositachilik tuzilmasi mavjud. Belgiya huquqiy tizimi oilaviy, fuqarolik va tijorat masalalarida mediatsiyani rag‘batlantiradigan Sud kodeksi orqali mediatsiyani birlashtiradi. Belgiya Federal vositachilik komissiyasi bu organ vositachilik xizmatlari sifatini nazorat qiladi va vositachilarni akkreditatsiya qiladi. Belgiya sudlari ko‘pincha ishlarni mediatsiyaga havola qiladi va kelishuvga erishilgandan so‘ng, sudlar uni ratifikatsiya qilishi va ijro etishi mumkin. Oila va mehnat vositachiligi bular Belgiyada mediatsiya keng qo‘llaniladigan ikkita asosiy yo‘nalishdir. Bu ajralish jarayonlarida, bolalarni vasiylik qilish ishlarida va ishdagi nizolarda keng tarqalgan. Majburiy sud buyrug‘i bilan mediatsiya mavjud bo‘lsa-da, Belgiyada ko‘plab tomonlar maxfiyligi, moslashuvchanligi va samaradorligi tufayli ixtiyoriy vositachilikni tanlaydi.

### **AQSh**

Mediatsiya Qo‘shma Shtatlarda keng tarqalgan bo‘lib, oilaviy huquqdan tortib yirik tijorat ishlarigacha bo‘lgan har xil turdagи huquqiy nizolarda nizolarni hal qilishning muqobil usullari qo‘llaniladi. AQShning ko‘pgina shtatlarida ayrim turdagи nizolar uchun vositachilikni talab qiluvchi qonunlar mavjud, xususan, oilaviy huquq (masalan, bolani vasiylik qilish, ajralish) va kichik da‘volar bo‘yicha sud. Misol uchun, ko‘plab fuqarolik da‘volari tomonlardan sudgacha vositachilik qilishni talab qiladi. Mediatsiya mehnat nizolari, tijorat nizolari, ishlab chiqarish nizolari va hatto ekologiya qonunchiligi bilan bog‘liq ishlarda keng qo‘llaniladi. Amerika arbitraj assotsiatsiyasi (AAA) kabi ixtisoslashgan ADR institutlari ham vositachilik xizmatlarini taklif qiladi. Federal vositachilik va yarashuv xizmati (FMCS) ushbu davlat organi mehnat nizolari, ayniqsa kasaba uyushmalari va rahbariyat o‘rtasidagi muzokaralarda vositachilikni taklif qiladi. AQSh vositachiligi odatda maxfiylikka urg‘u beradi va vositachilarni sudda guvoh sifatida chaqirish taqiqilanadi. Mediatsiya, shuningdek, butun Qo‘shma Shtatlar bo‘ylab biznesdan biznesga nizolar va jamiyatga asoslangan nizolarda keng tarqalgan.

### **Daniya**

Daniya, ayniqsa, oilaviy va mehnat nizolarida vositachilikdan foydalanishning uzoq an‘analariga ega, garchi u tijorat sohalarida ham rivojlanmoqda. Dansk Mediatsiya instituti Voldgift uchun Dansk instituti. 1981 yilda tashkil etilgan ushbu institut biznes va xalqaro nizolarda nizolarni hal qilishning muqobil usullarini, jumladan, vositachilikni targ‘ib qiladi.

Sudga integratsiyalashgan mediatsiya: Mediatsiya Daniya huquqiy tizimiga kiritilgan va sudlar tomonidan faol tavsiya etiladi. Mediatsiya, ayniqsa, ajrashish yoki bolani vasiylik qilish kabi oilaviy qonunlarda keng tarqalgan. Oilaviy vositachilik: Oilaviy nizolar, ayniqsa vasiylik va ajralish bilan bog‘liq nizolar ko‘pincha sudga borishdan oldin vositachilikka o‘tadi.

Oilaviy huquq markazlari ajralayotgan er-xotinlar o‘rtasidagi nizolarni kamaytirish uchun bepul vositachilik xizmatlarini taklif qiladi. Tijorat nizolarida vositachilik tobora ommalashib bormoqda, chunki korxonalar uni nizolarni hal qilishning yanada samarali va kamroq qarama-qarshi usuli deb bilishadi.

Daniyaning madaniy qadriyatlar sifatida konsensus yaratish va hamkorlikka e'tibor qaratilishi uning vositachilik amaliyotida ham o'z aksini topib, tortishuvli sud jarayoniga nisbatan do'stona echimlarni qo'llab-quvvatlaydi.

### Tadqiqot natijalari tahlili

Yuqoridagi mamlakatlarning barchasida mediatsiya keng tarqalgan bo'lsa-da, integratsiya darajasi, huquqiy asoslari va mediatsiya orqali hal qilinadigan nizolarning umumiy turlari turlicha. Singapur va AQShda savdo va sud vositachiligining yaxshi yo'lga qo'yilgan tizimlari mavjud, Germaniya va Belgiya esa vositachilikni oilaviy va mehnat nizolariga tobora ko'proq integratsiya qilmoqda. Daniya, kichikroq bo'lsa-da, oilaviy huquq va borgan sari tijorat nizolariga o'xshash e'tibor qaratmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib har bir chet el davlatining rivojlangan mediatsiya sohasidagi tajribalarini o'rganib o'zimizning qonunchilikga joriy qiladigan bo'lsak, bizning mediatsiya qonunchiligidan boshqa davlatlardan farqli o'laroq mediatsiyaning ko'plab tarmoqlari ishlashini ta'minlashimiz mumkin. Bunday o'zgarishlarning bizning fikrimicha xalqaro mediatorlikni joriy qilishimiz yuritimizni jahon ham jamiatida yurtimizdag'i mediatsiya sohasining qay darajada rivojlananini ko'rsatish imkonini beradi. Yevropa ittifoqi davlatlari kabi biz ham MDH davlatlari o'rtasi o'zaro kelishuv orqali hududlararo mediatsiya yo'lga qo'yishimiz mumkin. Hududlararo nizolarni muqobil hal etishni yo'lga qo'yilishi bizning fikrimizcha davlatlar o'rtaida do'stlikni yanada mustahkamlaydi.

### Xulosa

Xulosa o'rnida quyidagilarni keltirib o'tishni o'rin deb hisoblaymiz, mediativ kelishuvlarga chet el tajribasidan kelib chiqib yuridik kuch berish sud ishlarini anchagina ossonlashtirgan bo'lar edi. Undan tashqari mediatorlar uchun mediatorlar asossatsiyasini tashkil etish orqali furqarolarning mediativ kelishuvga erishishini qulay va samarali qilish mumkin. Mediatsiya asossatsiyalarida mediatorlarga maxsus unvon yoinki darajalar berish bilan mediatorlarning o'z ustida ishlashini ta'minlash mumkin. Mediativ kelishuvlarning tarmoqlarini bosqichma bosqich kengaytirish orqali biz mediatsiyaning rivojlanashida katta sakrashga ega bo'lishimiz mumkin bizning fikrimizcha. Jinoiy ishlar bo'yicha ham mediativ kelishuvlarni yo'lga qo'yish lozim deb hisoblaymiz. Lekin jinoyat sohasidagi mediativ kelishuvlarni limitli qilis ya'ni bir turdag'i jinoyat bo'yicha ikkinchi marotaba mediativ kelishuv qilishni cheklash orqali jinoyatchilikning oldini olishni ta'minlash mumkin. Jinoyat kodeksining 97-moddasi bo'yicha mediativ kelishuvlarning o'zgacha tartibini qo'llashni biz quyidagichi tartibda berishni maqsad qildik: aybdorligini aniqlangan shaxs jabrlanuvchining oilasi agar jabrlanuvchi halok bo'lgan bo'lsa, agar jabrlanuvchi hayot bo'lsa uni va oilasini ta'minlashni o'z zimmasiga olishi kerak deb hisoblaymiz. Mediatsiya sohasining rivojlanishi yurtimizdag'i sudlanganlik darajasini tushuradi, sudlarga ishlarning hajmini kamaytiradi va fuqarolarning ishini yengillashtiradi.

### REFERENCES

1. [https://www.wirtschaftsfoerderung-hannover.de/de/Handlungsfelder/Fachkraefte\\_Veraenderungsmanagement/Erfolgreiche\\_Konfliktloesung\\_en.php](https://www.wirtschaftsfoerderung-hannover.de/de/Handlungsfelder/Fachkraefte_Veraenderungsmanagement/Erfolgreiche_Konfliktloesung_en.php)
2. <https://gaffarcolaw.com/news-insights/types-of-dispute-resolution-in-indonesia/>

3. <https://www.linklaters.com/insights/publications/commercial-mediation-a-global-review/global-guide-commercial-mediation/indonesia>
4. <https://disputescentre.com.au/mediation-developments-in-indonesia/>
5. [https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=https://translate.google.com/translate%3Fu%3Dhttps://www.judiciary.gov.sg/docs/default-source/civil-docs/preparing\\_for\\_mediation\\_english.pdf%26hl%3Dru%26sl%3Den%26tl%3Dru%26client%3Drq%26prev%3Dsearch&ved=2ahUKEwjjkYKoi46JAxVKEhAIHZ27FSwQFnoECCgQAw&usg=AOvVaw1ML5ZXAhxV27lg3-W7r\\_d](https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=https://translate.google.com/translate%3Fu%3Dhttps://www.judiciary.gov.sg/docs/default-source/civil-docs/preparing_for_mediation_english.pdf%26hl%3Dru%26sl%3Den%26tl%3Dru%26client%3Drq%26prev%3Dsearch&ved=2ahUKEwjjkYKoi46JAxVKEhAIHZ27FSwQFnoECCgQAw&usg=AOvVaw1ML5ZXAhxV27lg3-W7r_d)
6. <https://cmc.mlaw.gov.sg/apply-for-mediation/the-mediation-process/>
7. <https://www.linklaters.com/insights/publications/commercial-mediation-a-global-review/global-guide-commercial-mediation/singapore>
8. <https://www.singaporelawwatch.sg/About-Singapore-Law/Overview/ch-03-mediation>
9. <https://mediation.com.sg>